

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2025
11-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274



Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.

Tahrir hay'ati raisi:

Abduvali Xoliqov

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:

Muzaffar Esanov

Bosh muharrir:

Jahongir Usmanov

Tahrir hay'ati a'zolari:

Akbarov Xamdin Ikramovich
Smanova Zulayxo Asanaliyevna
Berdimurodov Elyor Tuxliyevich
Butunov Dilmurod Baxodirovich
Nurmuxamedov Xabibulla Sagdullayevich
Nurboboyev Yorqin Tulqin o'g'li
Yunusova Xurshida Erkinovna
Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich
Musayev Nuriddin Umurzakovich
Boltabayev Mahmudjon Rustamovich
Babakulov Tulkin Ibodullayevich
Nazarov Qiyomiddin Normirzayevich
Tulenova Gulmira Jandarovna
Ismoilov Sobirjon To'rabekovich
Jo'arakulov Rustam Davronovich
Nazira Toshpo'latova Qurbonovna
Xudoyberdiyeva Sevara Xamzayevna
Yakubov Shuxrat Ummataliyevich
Tajibev Soyib Samijonovich
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna
Shodmonova Shaira Saidovna
Mamatqulova Kimyoxon Abduljalilovna
Serebryakov Yuriy Vladimirovich
Nurillayeva Nargiza Muxtarxanovna
Mirraximova Maktuba Xabibullayevna
Rasulov Abdumumin Ibragimovich
Jo'rayev Narzulla Qosimovich
Jumayev Rustam Ziyatovich
Qo'chqorov Abduvaxob Xoshimovich
Axmedov Tuychi Adashevich
Maxsumova Sadoqat Qosimjonovna
Mexliyeva Dilnoza Usmonovna

Dizayner:

Musamedov Sunnatulla
Lutpullayevich

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

- Шавкат Хайдаров. ИНТЕГРАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ «ШКОЛА–
МАХАЛЛЯ» В ГРАЖДАНСКОМ ВОСПИТАНИИ ШКОЛЬНИКОВ.....1**
- Rahmatjon Ismoilov. BO'LAJAK MUHANDISLARNING
RAQAMLI-TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI STRUKTURAVIY
MODELLASHTIRISH: SUN'YI INTELLEKT VA PEDAGOGIK
INTEGRATSIYA.....5**
- Нодира Азаматова. ЛЕКТОРСКОЕ МАСТЕРСТВО И ЕГО ОСНОВЫ:
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ9**
- Javohir Ergashev. TO'G'RIDAN ZARBA TEXNIKASIDA SEGMENTLARARO
VAQT SINXRONLIGI VA MAKSIMAL BURCHAK TEZLIKLARINING
TALABA BOKSCHILAR TEXNIK SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 12**
- Умида Махкамova, Динара Назарова. «РОЛЬ УЛИЧНОГО
ПРОСТРАНСТВА В ФОРМИРОВАНИИ УРБАНИСТИЧЕСКОЙ
СРЕДЫ»..... 16**
- Javohir Ergashev. TALABA BOKSCHILARDA TO'G'RIDAN
ZARBA BAJARILISHIDA KINETIK ZANJIR BARQARORLIGI VA
BO'G'IMLARARO KOORDINATSION SINXRONLIKNING
BIOMEKANIK TAHLILI 22**
- Руслан Халиков. ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ЮБЕЛИРНОГО
ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА 26**
- Jenisbay Shaniyazov. TURKIY TILLAR LEKSIKASINING RIVOJLANISHIDA
ARAB-FORS O'ZLASHMALARINING O'RNI..... 29**
- Javlonbek Zulxaydarov. TALABALARNING SHAXMAT BILAN
SHUG'ULLANISHI VA AKADEMIK MUVAFFAQIYATI
O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK..... 32**
- Sardorbek Sattorov. TALABALARGA RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA
AXBOROTNI TEXNIK HIMOYALASHNI O'RGATISHNING
DIDAKTIK ASOSLARI 35**
- Dilafro'z Jabbarova. KIMYO FANINI O'QITISHDAGI ASOSIY
MUAMMOLAR VA ULARGA PEDAGOGIK YECHIMLAR 38**
- Eshmurod Murtazayev, Bilolbek Mustafayev. QURILISH OBYEKTILARIDA
HAYOT XAVFSIZLIGI MADANIYATINI SHAKILLANTIRISHNING
MOHIYATI..... 42**

TALABALARNING SHAXMAT BILAN SHUG'ULLANISHI VA AKADEMIK MUVAFFAQIYATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Javlonbek Zulxaydarov,

CHDPU Jismoniy madaniyat nazariyasi kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya.

Mazkur maqolada shaxmat sport turi sifatida nafaqat aqliy o'yin, balki talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shaxmat bilan muntazam shug'ullanadigan talabalar va shug'ullanmaydigan talabalar akademik ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar o'rganildi.

Kalit so'zlar: shaxmat, akademik muvaffaqiyat, talaba, mantiqiy tafakkur, diqqat va xotira, intellektual rivojlanish, mustaqil fikrlash.

Annotation.

This article analyzes scientifically and theoretically the fact that chess as a sport is not only a mental game, but also an important pedagogical tool that develops the intellectual potential of students. During the study, the differences between the academic performance of students who regularly engage in chess and non-engaged students were studied.

Keywords: chess, academic success, student, logical thinking, attention and memory, intellectual development, independent thinking.

Аннотация.

В данной статье научно и теоретически анализируется тот факт, что шахматы, как вид спорта, являются не только интеллектуальной игрой, но и важным педагогическим инструментом развития интеллектуального потенциала учащихся. В ходе исследования изучались различия в успеваемости учащихся, регулярно играющих в шахматы, и тех, кто этого не делает.

Ключевые слова: шахматы, академическая успеваемость, учащийся, логическое мышление, внимание и память, интеллектуальное развитие, самостоятельное мышление.

Kirish va dolzarbligi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlay oladigan va raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida faqat nazariy bilimlar emas, balki talabalarning intellektual va psixologik qobiliyatlarini rivojlantirish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, shaxmat o'yini talabalarning aqliy salohiyatini oshirishda samarali vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi[1].

Shaxmat qadimdan inson tafakkurini charxlovchi o'yin sifatida tanilgan. U strategik rejalashtirish, mantiqiy tahlil, sabr-toqat va oldindan fikrlash kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Mazkur ko'nikmalar esa bevosita talabaning akademik faoliyatida, xususan, fanlarni o'zlashtirish, muammolarni hal etish va mustaqil izlanishlarda muhim rol o'ynaydi[3,64].

So'nggi yillarda O'zbekistonda shaxmat sportiga bo'lgan e'tibor kuchayib, u ta'lim muassasalarida ham ommalashib bormoqda. Shunga qaramay, shaxmat bilan shug'ullanishning akademik muvaffaqiyatga ta'siri yetarlicha ilmiy asosda o'rganilmagan. Shu sababli ushbu mavzu dolzarb bo'lib, tadqiqot olib borish amaliy va nazariy ahamiyatga ega[4,72].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Nazariy tahlil metodi** – shaxmat va akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlikka oid ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar o'rganildi.
- **Taqqoslash metodi** – shaxmat bilan muntazam shug'ullanadigan va shug'ullanmaydigan talabalar akademik ko'rsatkichlari solishtirildi.
- **So'rovnomma metodi** – talabalar o'rtasida shaxmat mashg'ulotlarining ta'lim jarayoniga ta'siri bo'yicha fikrlar o'rganildi.
- **Statistik tahlil** – o'rtacha baholar va o'quv natijalari asosida xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotda oliy ta'lim muassasasining 1–3-bosqich talabalaridan iborat ikki guruh ishtirok etdi. Birinchi guruh shaxmat to'garagida muntazam qatnashuvchi talabalar bo'lsa, ikkinchi guruh shaxmat bilan shug'ullanmaydigan talabalar sifatida belgilandi.

Tahlillar. Tahlil natijalariga ko'ra, shaxmat bilan muntazam shug'ullanuvchi talabalar akademik jihatdan nisbatan yuqori natijalarga ega ekanligi aniqlandi. Ularning fanlarni o'zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash ko'nikmalari va mantiqiy masalalarni yechish tezligi yuqoriroq bo'ldi.

1-jadval:

Talabalarining o'quv yilida shaxmat natijalari

	Shaxmatchi	O'	Y	D	M	By	%
1	Nurmamatova Sevara	41	28	2	11		70.7
2	Hamidov Saidolim	36	24	2	10	1	69.4
3	Djainbayev Nurlan	41	24	1	16	1	59.7
4	Beknazarova Dilshoda	36	22	2	12	1	63.8
5	Narzullayev Abdusaid	32	22	1	7	1	70.3
6	Zuxurov Azamat	29	18	5	6		70.6
7	Komilov Og'abek	33	18	2	11		57.5
8	Yusufov Og'abek	28	15	4	9		60.7
9	Serikbayev Auelbek	43	15	2	26	4	37.2
10	Fayzullayev Shaxriyor	24	14	0	10		58.3
11	Boytemirov Shodiyor	29	11	2	16	2	41.3
12	Shermanov Begali	18	12	0	6		66.6
13	Farxodov Bexruz	28	11	1	16	2	41.0
14	Ismoilova Gulshona	13	8	1	4		65.3
15	To'raxonova Dilfuza	10	8	0	2		80.0
16	O'rinboyev Asadbek	8	6	2	0		87.5
17	Boltaboyev Azamat	10	7	0	3	1	70.0
18	Egamberdiyev Ruslan	8	6	0	2		75.0
19	Karimboyev Mirzohid	6	5	0	1		83.3
20	Farxodov Temur	7	4	1	2		64.2
21	Adamboyeva Dilrabo	8	4	0	4		50.0
22	Saydullayev Dovut	8	4	0	4		50.0
23	Jalgasova Danila	8	4	0	4		50.0
24	Raximova Anabibi	8	4	0	4		50.0

Shaxmat o'yini talabalarni vaziyatni tez va to'g'ri baholashga o'rgatadi. Bu esa dars jarayonida murakkab mavzularni anglash va muammoli savollarga javob topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, shaxmat talabada diqqatni jamlash va xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi, bu esa imtihon va nazorat ishlarida ijobiy natijalar beradi.

	Talaba	Mutaxassislik fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlari (%)	Nomutaxassislik fanlaridan o'zlashtirish ko'rsatkichlari (%)
1	Nurmamatova Sevara	89	79
2	Hamidov Saidolim	92	80
3	Djainbayev Nurlan	78	71

4	Beknazarova Dilshoda	87	86
5	Narzullayev Abdusaid	80	82
6	Zuxurov Azamat	90	81
7	Komilov Og'abek	77	82
8	Yusufov Og'abek	86	80
9	Serikbayev Auelbek	79	71
10	Fayzullayev Shaxriyor	75	69
11	Boytemirov Shodiyor	70	74
12	Shermanov Begali	78	70
13	Farxodov Bexruz	71	66
14	Ismoilova Gulshona	79	75
15	To'raxonova Dilfuza	67	70
16	O'rinboyev Asadbek	73	69
17	Boltaboyev Azamat	79	73
18	Egamberdiyev Ruslan	73	70
19	Karimboyev Mirzohid	83	75
20	Farxodov Temur	70	66
21	Adamboyeva Dilrabo	60	67
22	Saydullayev Dovut	63	67
23	Jalgasova Danila	67	60
24	Raximova Anabibi	79	73

Taxlil natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxmat bilan shug'ullanuvchi talabalar o'zlarini o'qishga nisbatan intizomli va mas'uliyatliroq deb hisoblaydilar. Ular vaqtni rejalashtirish va stressni boshqarishda ham yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Tavsiyalar. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida shaxmat to'garaklarini tizimli ravishda tashkil etish.
2. Shaxmat mashg'ulotlarini ixtiyoriy tanlov fanlari yoki fakultativ mashg'ulotlar sifatida joriy etish.
3. Talabalar o'rtasida shaxmat musobaqalari va intellektual turnirlar o'tkazish.
4. Shaxmat orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik qo'llanmalar ishlab chiqish.
5. Professor-o'qituvchilarni shaxmatning pedagogik imkoniyatlari bilan tanishtirish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, shaxmat bilan shug'ullanish talabalarning akademik muvaffaqiyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, diqqat va xotirani mustahkamlaydi hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari shaxmatni oliy ta'lim tizimida intellektual rivojlanish vositasi sifatida kengroq qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli shaxmat mashg'ulotlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarning umumiy bilim darajasi va akademik muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBA'LAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3906 sonli Qarori. 2018-yil 9-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4954 sonli Qarori. 2021-yil 14-yanvar.
3. Muhitdinov M. Shaxmat. Maktablarning shaxmatni endi o'rgana boshlagan o'quvchilar va kam malakali shaxmatchilar uchun qo'llanma. Tuzatilgan va to'ldirilgan nashri. – T.: "Sharq", 2007 y. – 352 b.
4. Muxitdinov M. 64 xona – 32 dona... "Yosh gvardiya nashriyoti". Toshkent 1975 y. – 112 b.
5. Qosimjonov R. Shaxmat-sehirli olam. Toshkent. 2013 y. – 200 b.